

**O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMINING TASHKIL ETILISHI,
RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI**

Suyunova Odina Sobir qizi

Jizzax davlat pedagogika universitet

Maxsus pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Annotasiya: *Maqola yurtimiz ta’lim tizimidagi yangicha islohotlar biri inklyuziv ta’lim rivojlanishi, maqsadi, jamiyatdagi o‘rni va buning davlatimiz kelajakdagi tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ta’lim, tarbiya, ruhiy-jismoniy, alohida yordamga muhtoj.*

Atrofimizga nazar solsak, biz har kuni ko‘radigan go‘zal olamni hamma bolalar ham ko‘ra olmaydi, biz eshitgan so‘zlarni eshita olmaydi, biz ba’zida nolib yurgan yo‘llarimizdan bir marotaba bo‘lsada yurib ko‘rish ayrim bolalarning bir umrlik orzusi, chunki ularning ko‘zlari ojiz, quloqlari eshitmaydi, oyoq va qo‘llarining harakati cheklangan. Ammo bu bolalarning ham hamma qatori dunyoni anglashga, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish va hamma qatori imkoniyatlardan foydalanishga haqlari bor. Turli sabablarga ko‘ra jismoniy yoki ruhiy nuqsonlarga ega bolalarni jamiyatdan uzib, alohida cheklovlar asosida o‘stirib bo‘lmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan korreksion ishlar olib borish orqali ularni ham jamiyatga foydasi tegadigan shaxs qilib tarbiyalash har bir o‘z kelajagi haqida qayg‘uradigan davlat uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ham: " Har qanday xalqning ma’naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo‘lgan e’tibori bilan belgilanadi"[1] degan fikrlari bilan bu masala qanchalik dolzarb ekanligi ta’kidlab o‘tganlar.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy –me’yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi[2].

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan 2007 yilda «O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim» loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» nomli markaz, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko‘mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O‘zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi. Ushbu loyiha doirasida

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Toshkent, Termiz, Jizzax, Guliston, Qarshi, Samarqand, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta'lim-tarbiya olishmoqda.

Yurtimizda ham imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy jamiyatga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga qo'shish, imkon qadar salomatligini rehabilitatsiya qilish maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu loyihada, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Buning natijasida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini[3] chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlari asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun bu muhim sanaladi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, "inclusif"- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda tengdoshlari bilan to'siqlarsiz ijtimoiy jamiyatga qo'shilish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Bu tizim orqali bolalar birgalikda o'qib, bir-birlarini hurmat qilishni va turli qobiliyatlarni qadrlashni o'rganishadi. Bu jamiyatda diskriminatsiyani kamaytirish uchun muhim omildir. Oddiy bolalar maxsus yordamga muhtoj tengdoshlari bilan o'qiganida, sabr-toqat, empatiya, va jamoaviy ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilar esa o'zlariga nisbatan ishonch hosil qilishlari va jamiyatning ajralmas qismi ekanligini his qilishadi. Inklyuziv ta'lim har bir bola uchun mos keladigan ta'lim usullarini qo'llashni talab qiladi. Bu har bir o'quvchining qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'lim nafaqat maxsus yordamga muhtoj o'quvchilar, balki butun jamiyat uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir bolaning qadr-qimmat, qobiliyati va imkoniyatlari e'tiborga olinadigan bunday ta'lim tizimi ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish uchun asos yaratadi. Shu sababli, bu jarayonni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamiyatning umumiy vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qutuvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada” rivozlashtirish byyicha garakatlar strategiyasi tug‘ilishi PF-4947-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni,2008 yil 7-yanvar O‘RQ-139-son <https://www.lex.uz/acts/1297315>
- 4."Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA. Chirchiq-2022

